

**HOZIRGI KUNDA QO'SHINLARDA OLIB BORILAYOTGAN  
JANGOVAR TAYYORGARLIK VA TASHKILLASHTIRISH  
JARAYONI**

*“Qurollanish va otish” kafedrasida katta o'qituvchisi podpolkovnik*

***Niyozov Samandar O'ktamovich.***

***Kursant Jumaboyev G'ulomjon Muzafaar o'g'li***

***Annotatsiya.*** Maqola hozirgi kundagi qo'shinlarda harbiy jangovar tayyorgarlikni olib borish va tashkillashtirish haqida ma'lumotlar tahlil qilingan

***Kalit so'zlar:*** Obyektlar, jangovar mashinalari parki, o'quv binolari, dala maydonidagi obyektlar, jangovar va komandirlik tayyorgarligi dasturlari, jangovar navbatchilik va operativ xizmat olib borish tartibi, vazifalarni bajarish tartibi, ketma-ketligini nazorati. Ilg'or tajribalari sifatida ofitserlar bilan mashg'ulotlar kompyuterlashtirilishi, shartnoma asosida xizmat qilayotgan shaxsiy tarkibni malakali mutaxassislariga birlashtirilishi.

***Аннотация.*** В статье анализируются сведения о проведении и организации боевой подготовки в современных армиях.

***Ключевые слова:*** Объекты, парк боевых машин, учебная база, полевая база, программа боевой и командной подготовки, боевое дежурство, оперативность, поставленные задачи, контроль очередности. Компьютеризация, квалифицированный специалист.

***Абстракт.*** The article analyzes information about the conduct and organization of combat training in modern armies.

***Key words:*** Facilities, fleet of combat vehicles, training base, combat and command training program, combat duty, efficiency, assigned tasks, priority control, computerizations qualified specialist.

**JANGOVAR TAYYORGARLIKNING OLIB BORILISHI**

Hozirgi zamonaviy to'qnashuvlarda motoo'qchi, tog'-o'qchi va tankqo'shilmalarini turli yo'nalishlarda mohirlik bilan qo'llash amalga oshirilmoqda, ilg'or xorijiy tajribalardan kelib chiqib, Mudofaa vazirligida motoo'qchi, tog'-o'qchi va tank qo'shilmalari bo'linmalarining nufuzini oshirish va yuksak axloqiy-ruhiy va jismoniy jihatlarini takomillashtirish maqsadida motoo'qchi, tog'-o'qchi va tank qo'shilmalari bo'linmalarining tayyorgarligi yangi bosqichga ko'tarildi.

Harbiy qism boshqarmasi va bo'linmalarining doimiy jangovar holatini, ma'naviy-ruhiy, jangovar tayyorgarligi bo'yicha rejalashtiruvchi hujjatlarini ishlab chiqishi va qo'shin xizmatini tashkillashtirishda bevosita quyidagilar amalga oshirmoqda:

harbiy qism komandirining jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinbosarining hamda jangovar tayyorgarlik bo'limi mansabdor shaxslarining majburiyatlari, jangovar tayyorgarlik bo'yicha rahbariy va rejalashtirish hujjatlari, harbiy qism bo'linmalarida jangovar tayyorgarlik jarayoni, jangovar navbatchilik, operativ-texnik xizmat olib borish, harbiy texnika, qurol-aslahalarga texnik xizmat qilishi, ta'mirlash va saqlash tartibi, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarining tashkillashtirilish rejasi;

harbiy qism boshqarmasi va bo'linmalarida xizmat o'tayotgan akademiyani bitirgan ofitserlarining xizmat faoliyati bilan tanishish;

harbiy qismda jangovar tayyorgarlikni rejalashtirish bo'yicha rahbariy xujjatlar;

mashg'ulotlarni rejalashtirish bo'yicha jangovar tayyorgarlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibi;

harbiy qism shtabida harbiy qismning jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirish va sifatli o'tkazish uchun yillik va oylik rejasini ishlab chiqish;

harbiy qism shtabida shaxsiy tarkib bilan komandirlik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish rejasini ishlab chiqish;

harbiy qismda joylashgan obyektlar, jangovar mashinalari parki holati, o'quv binolari, shuningdek, o'quv dala maydonidagi obyektlar holati hamda ularni takomillashtirish ishlarini olib borish bo'yicha rejalar;

harbiy qism va bo'linmalarining jangovar va komandirlik tayyorgarligi dasturlarini yangilash rejasi;

harbiy qismning jangovar navbatchilik va operativ-texnik xizmat olib borish tartibi, bo'linmalarga qo'yilgan vazifalarni bajarish tartibi, ketma-ketligini nazorat qilish rejasi.

O'quv va tarbiyaviy jarayon ilg'or tajribalari sifatida ofitserlar bilan mashg'ulotlar kompyuterlashtirilgan o'quv sinfida o'tkazilishi, shartnoma asosida xizmat qilayotgan shaxsiy tarkibni malakali mutaxassislariga birlashtirilishini ko'rsatsa bo'ladi. Bundan tashqari batalyonlar ofitserlari tomonidan respublikamizning barcha tuman va shahrlardagi umumta'lim maktablari va o'quv markazlarida "Yoshlarni Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish" mavzusida hamkorlikda ishlar olib borilib, muntazam ravishda mashg'ulotlar tashkillashtirib amaliy ko'mak ko'rsatib kelinmoqda.

Harbiy qismlarda bo'linmalar uchun asosiy o'quv fanlardan zamonaviy o'quv-moddiy vositalar bilan jihozlangan o'quv sinflari mavjud.

Harbiy qism hududida amaliy otish mashqlarini kichik kalibrli qurollardan bajarish mumkin bo'lgan TIR otish maydoni ham hozirgi kun talablariga mos ravishda jihozlangan.

Bitiruvchilarning aksariyat qismi xizmatning ilk davrlarida shaxsiy tarkib bilan amaliy ishlashda, yangi sharoitga, jamoaga moslashib ketishda qiyinchiliklarga duch kelganliklarini, shuning uchun akademiyaning tugatgandan keyin qo'shinlar amaliyoti o'tagan harbiy qismga lavozimga tayinlash orqali moslashish jarayonini yengillashtiradi.

Bitiruvchilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va boshqa harbiy okrug ofitserlari bilan tajriba almashish maqsadida, Qurolli Kuchlar Akademiyasi va Chirchiq OTQMBY bazasida kamida 2 yilda bir marta qisqa muddatli (2-3 hafta davomida) mutaxassislik bo'yicha o'quv kurslari tashkillashtirish ehtiyoji

borligini inobatga olish kerak. Ofitserlar komandirlik tayyorgarligi uchun vaqt kamligini, ayrim hollarda umuman vaqt bo'lmashligini inobatga olib, mustaqil tayyorgarlik uchun davlat tilida qo'proq adabiyotlar chop qilishni tashkillashtirish zarur.

**Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

**Birinchidan**, vatanparvarlik bu harbiy xizmatchilarning ma'naviy, siyosiy, axloqiy mohiyatini tashkil etuvchi, uning fuqarolik o'rnini shakllantiruvchi fazilat bo'lib, Vatanni sevishni, uning tarixiga, madaniyatiga, muvaffaqiyatiga daxldorlikni hamda o'zini qurbon qilishgacha bo'lgan Ona – yurtga xizmat qilishni va fidokorlikni ifodalaydi hamda harbiy xizmatchilar faoliyatining muhim motivi hisoblanadi. Ofitserlarda va serjantlarda ushbu fazilatni tarbiyalashga yetarli e'tibor bermaslik, jamiyat rivojlanishining ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy va madaniy asoslarini zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

**Ikkinchidan**, mas'uliyat murakkab hodisa bo'lib, o'zida axloqiy, ma'muriy, huquqiy jihatlarni qamrab oladi hamda harbiy boshqaruv faoliyatida tartibga solish, gnoseologik va ixtiyoriy – boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradi. U ofitser faoliyatida mas'uliyat ichki mexanizm sifatida namoyon bo'lib, o'z harakatlari va ularning oqibatlarini anglash, javobgarlikni his etish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, harbiy bo'linmalar, Qurolli Kuchlar va jamiyatning taraqqiy etishiga xizmat qiluvchi omil, amaliy faoliyatga undovchi kuch, harbiy boshqaruv faoliyatining **ma'naviy-axloqiy mezon** hisoblanadi.

**Uchinchidan**, ofitserlik sha'ni undan nafaqat o'zining obro' – e'tiborini, balki ofitserlar tarkibi va Qurolli Kuchlarni nufuzini saqlash kerakligini anglatadi hamda e'tiqodning mustahkamligi va doimo o'zi ustida ish olib borishni talab qiladi.

**To'rtinchidan**, harbiy kompetentlikning asosida Vatanga, o'z xalqiga xizmat qilishga, davlat, jamiyat va shaxsning manfaatlarini himoya qilishdek o'zining vatanparvarlik burchini ado etishga ma'naviy tayyorlik yotadi. Harbiy ishni vijdonan o'rganish, Vatanni himoya qilishdek o'zining harbiy burchini teran

anglash va olgan harbiy bilimlarini faqatgina jamiyat manfaatlariga qo'llash, harbiy kompetentlik fazilatining ikki tomonidir.

**Beshinchidan**, ofitserning harbiy boshqaruv madaniyatiga egaligi ma'naviy fazilat komponenti bo'lib, o'zida harbiy boshqaruv faoliyatining turli yo'nalishlarida namoyon bo'luvchi "kuch mohiyati" hisoblanadi. Mazkur fazilat ofitserga harbiy qism va bo'linmalarni muvaffaqiyatli boshqarishga imkon yaratib, bo'ysinuvchilarda harbiy rahbar to'g'risida ijobiy fikr shakllantirib, uning xulq atvoridan ibrat olishga undaydi.

**Quyidagilarni taklif etaman:**

1. Qo'shinlar amaliyotini yaxshilash maqsadida o'qituvchilarni qo'shinlar amaliyoti uchun lavozimga tayinlashda lavozimni egallab turgan mansabdor shaxsning ma'lumotini, yani akademiyani yoki unga tenglashtirilgan ta'limi muassasasida ta'lim olganini inobatga olishni; (chunki faqat harbiy bilim yurtini tugatgan mansabdor shaxslardan tajriba o'rganish qo'shinlar amaliyotiga tayinlangan o'qituvchi uchun qiyinchilik tug'diradi).

2. Kursantlarining qo'shinlar amaliyotini samarasini oshirish maqsadida harbiy qismdagi mavjud bo'lgan barcha texnik vositalardan unumli foydalanishni, qo'shin amaliyoti rahbarlari tomonidan hafta yakuni bo'yicha tinglovchilar va kursantlarning hisobotni tinglash hamda shu orqali ularning o'zaro tajriba almashishini amalga oshirishni.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'R QK BSHB ning 2020 - yil 6- martdagi 237-sonli buyrug'i;
2. O'R QK BSHB ning 2021 - yil 28- dekabrda 276-sonli buyrug'i;
3. O'R QK BSHB ning 2022 - yil 22- apreldagi 1/660-sonli ko'rrsatmasi;
4. O'R QK BSHB ning 2024 - yil 16- apreldagi 126-sonli buyrug'i;
5. O'R MV ning 2023 - yil 2- avgustdagi 375-sonli buyrug'i;
6. Otish tayyorgarligi IV-qism. Darslik.